

**ATROF-MUHIT IFLOSLANISHI VA INSON SALOMATLIGI:
ZAMONAVIY XAVFLAR VA ILMIY YONDASHUVLAR****To'lanboyeva Muxlisaxon Elyorbek qizi***Andijon davlat tibbiyot instituti**Pediatrica yo'nalishi I-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Tabiat va insoniyat bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, tabiatdagi har qanday iqlimiy o'zgarishlar va atrof-muhit omillari inson hayotiga, albatta, o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Atrof-muhit omillari inson hayotiga ta'sir qiluvchi tabiiy yoki texnogen omillardir. Insoniyatning mana shu omillar bilan o'zaro ta'sirlanishi odamlarning salomatligi, farovonligi va hayot sifatiga juda katta sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ekologik omillar, jumladan, havoning ifloslanishi, tuproqning ifloslanishi, radiatsiya, shovqin va iqlim o'zgarishlari inson salomatligidagi salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada atrof-muhit omillari natijasida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ayni vaqtda fuqarolar va davlat organlari tomonidan olib borilayotgan tadbirlar va ularning natijalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Radiatsiya, havoning ifloslanishi, atrof-muhit omillari, ekologik omillar, reproduktiv funksiyalar, O'pka kasalliklari.

Аннотация: Природа и человечество тесно взаимосвязаны, и любые климатические изменения или факторы окружающей среды неизбежно оказывают влияние на жизнь человека. Факторы окружающей среды — это природные или техногенные элементы, воздействующие на человеческую жизнь. Взаимодействие человечества с этими факторами существенно влияет на здоровье, благополучие и качество жизни людей. Например, экологические факторы, такие как загрязнение воздуха, загрязнение почвы, радиация, шум и изменения климата, становятся причиной негативных изменений в здоровье человека. В данной статье анализируются проблемы, возникающие под воздействием факторов окружающей среды, и возможные пути их решения. Кроме того, в статье анализируются мероприятия, проводимые гражданами и государственными органами, и их результаты.

Ключевые слова: Радиация, загрязнение воздуха, факторы окружающей среды, экологические факторы, репродуктивные функции, заболевания лёгких.

Annotation: Nature and humanity are closely interconnected, and any climatic changes or environmental factors inevitably affect human life. Environmental factors are natural or technogenic elements that influence human life. The interaction of humanity with these

factors has a significant impact on people's health, well-being, and quality of life. For example, environmental factors such as air pollution, soil contamination, radiation, noise, and climate change lead to negative changes in human health. This article analyzes the problems arising from environmental factors and their possible solutions. Additionally, the article analyzes the measures being carried out by citizens and government agencies, as well as their outcomes.

Keywords: Radiation, air pollution, environmental factors, ecological factors, reproductive functions, lung diseases.

Bugungi globallashuv va tezkor urbanizatsiya jarayonlari natijasida atrof-muhit ifloslanishi insoniyatni tashvishga solgan va imkon qadar oldini olishi kerak bo'lgan dolzarb ekologik muammolardan biriga aylandi. Havo, suv va tuproqning ifloslanishi, radiatsiya nafaqat tabiiy resurslarga, balki hayvonot dunyosi va insoniyat salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu ifloslanishning asosiy sabablari orasida sanoat faoliyati, qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalarning qo'llanishi, transport vositalari chiqindilari va chiqindi boshqaruvi muammolari bor.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi bilan aholining reproduktiv funksiyasidagi buzilishlar o'rtasida bevosita sabab-oqibat bog'liqligi mavjud bo'lib, bu kabi salbiy ta'sirlar asosan zararli mehnat sharoitiga ega korxonalarda – to'qimachilik sanoati, metallurgiya korxonalari, gaz va neftni qayta ishlash korxonalarida ishlovchi xodimlar va jarroh ayollar orasida kuzatilgani kabi, havosi, suv manbalari va tuprog'i kimyoviy birikmalar bilan islosgan aholi punktlarida yashovchilar orasida ham qayd etilgan.

Shuningdek, jahon statistik ma'lumotlarga ko'ra, insoniyatning 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va urushlar natijasida, 70% esa kasalliklar sababli o'lmoqda. Bu bilan bir qatorda shuni ham ta'kidlash mumkinki, sog'lig'imizning atigi 10%i tibbiyotga, qolgan 90%i esa o'zimizning jismoniy va psixologik holatimizga va atrof-muhit hodisalariga bog'liq.

Atrof-muhit omillari orasida insoniyat salomatligiga xavf soluvchi omillardan biri bu havoning ifloslanishi bo'lib, havoning ifloslanishi atmosfera havosi tarkibida qo'rg'oshin, margimush, mis va boshqa og'ir metallarning qattiq birikmalari, oltingugurt gazi, uglerod oksidi, ftor brikmasi va boshqa gazsimon va suyuq moddalar miqdori REM darajasidan oshib ketsa vujudga keladi. Havoning ifloslanishi oxiri o'limga olib boruvchi kasalliklarga sabab bo'lganligi tufayli jiddiy va global muammo sifatida o'rganilmoqda.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, havo ifloslanishining insoniyat salomatligiga ta'siri sezilarli. Masalan, havoning ifloslanishi quyidagi muhim holatlarga olib keladi:

- O'pka kasalliklarida global o'limlarning 31%
- O'tkir pastki nafas yo'llarining infeksiyalari sababli global o'lim va kasalliklarning 19%
- Dunyo bo'ylab insultdan o'lim holatlarining 28%ini tashkil etmoqda.

Havoning ifloslanish darajasini kamaytirish maqsadida hukumat tomonidan bir qancha tadbirlar olib borilayotgan bo'lib, ulardan biri jamoat transport vositalarini rivojlantirish va aholini jamoat transportlaridan foydalanishga undashdir. Shuningdek, "Yashil hudud" loyihasi ham qo'llab quvvatlanmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi tabiatni asrab -avaylash va kislorod ishlab chiqaruvchi daraxtlar va o'simliklar ekishni yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Inson salomatligi uchun xavf tug'diruvchi yana bir ekologik muammo – bu iqlim o'zgarishi, shuningdek, yer iqlimining o'zgarishi natijasida vujudga kelgan tabiiy ofatlar hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi ham bir qator kasalliklarning paydo bo'lishi bilan bir qatorda insonda kasallikka moyillikni, ya'ni kasallikka nisbatan zaiflikni oshiradi. Turli xil ta'sirlar asab va nafas olish kasalliklari, diareya va boshqalarga nisbatan zaiflikni oshiradi.

Nafaqat ushbu omillar, balki suvning ifloslanishi ham insonlarning vafotiga sabab bo'lmoqda. Tekshiruvlar va tadqiqotlarga ko'ra, dunyo aholisining 780 milliondan ortig'i toza ichimlik suviga ega emas. Shuningdek, yer yuzidagi insonlarning taxminan uchdab bir qismi tegishli sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu faktlarning sog'likka ta'siri ham ajablanarli va shu bilan bir qatorda achinarli: har kuni 2200 dan ortiq bola suvning sifatsizligi va yaroqsizligi tufayli vujudga keluvchi kasalliklardan vafot etmoqda.

Ushbu tadqiqot natijasida anglashimiz mumkinki, atrof-muhitning ifloslanishi nafaqat tabiatga, hayvonot dunyoniga, balki insoniyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tabiiy ofatlar va turli xil ifloslanishlar har kuni millionlab insonlarning o'limiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli ham, ifloslanishni oldini olish maqsadida hukumat va fuqarolar tomonidan bir qancha chora tadbirlar olib borilmoqda, va bu harakatlar o'z natijasini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эргашев А. Э. "Умумийэкология" Тошкент, "Уқитувчи".2003й
2. Гиляров А. М."Популяционнаяэкология" изд-воМГУ.1990
3. Аминижонова, Ч. А., & Мустафаева, М. И. (2017). Биоэкологическая характеристика водорослей биологических прудов г. Бухары. In Экологические проблемы промышленных городов (pp. 387–389).

4. Nazarova, F. (2021). Ўзбекистонда асосий ривожланиш фазаларини аниқлашда фенологик кузатиш усулидан фойдаланиш. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 11, 131–134.